



Aralash yoshli guruhlarda talim-tarbiya sifatini takomillashtirish mazmuni

Azimova Ziyoda Ergashevna
Artikova Muhayyo Botiraliyevna
Qodirov Valijon Abdurahmanovich
Хасанов Шаробидин Азамович
Муқаддас Тожибоева
Абдурахимовна

Andijon davlat pedagogika instituti
o'qituvchilari

Аннотация. Maqolada aralash yoshli bolalar guruhini tashkil qilishning o'ziga xosliklari, afzalliklari, undan ko'zlangan maqsadlar bayon qilingan. Xususan, aralash yoshli bolalar guruhida tarbiyachining pedagogik faoliyati masalalariga ham urg'u berilgan.

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari, aralash yoshli guruhlar, insoniy tuyg'ular, anglangan munosabatlar, ijtimoiy hulk, nutqiy rivojlanish

Abstract. The article describes the specifics, advantages, and goals of organizing a mixed-age children's group. In particular, emphasis is placed on the issues of the educator's pedagogical activity in a mixed-age children's group.

Keywords: preschool educational organizations, mixed-age groups, human emotions, perceived relationships, social behavior, speech development

So'ngi yillarda mamlakatimiz MTTlarida bolalar guruhlarining yosh chegaralari ko'plab baxs-munozaralar mavzusiga aylangan. Ayniqsa, aralash yoshli guruhlar soxa vakillarining xam, ota-onalarning ham, keng jamoatchilikning ham diqqat markazida. Bunday guruhlar o'z-o'zidan yoki maqsadli ravishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shakllanadi, turli xil ta'lim va tarbiya funksiyalarini bajaradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Bugungi kunda kichik hajmdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki davlat xususiy sherikchilik asosidagi oilaviy bog'chalarda bolalarning faoliyati va bo'sh vaqtini tashkil etishda aralash yoshli guruhlarini shakllantirish zarurati tug'ildi. Ularning soni qishloq joylarda ko'payib bormoqda, bu esa ikkitadan to'rttagacha bir nechta guruhlarini birlashtirish zarurligiga olib keladi. **Aralash yoshli guruh** - yoshi va intellektual rivojlanish darajasi bilan farq qiladigan va turli xil ta'lim dasturlarida o'qitilishi kerak bo'lgan bolalar uyushmasi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar bilan ta'minlash, tizimning metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy

etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da "...hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli barkamol avlodni voyaga yetkazish" asosiy maqsad etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan vazifalar bo'yicha sifatli ta'lim berish kelajakda katta imkoniyatlarni yaratadi va mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy farovonligiga muhim hissa qo'shadi. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim va tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida sifat va samaradorlikni yuksaltirish maqsadida xorijiy tajribalarni o'rganish vazifasi qator huquqiy hujjatlarda belgilangan.

O'zbekiston hududida guruhlarini shakllantirishda yoshlar kesimi ko'rsatilgan, lekin qonunchilikda aralash yoshli bolalar guruhini tashkil qilish taqiqlanmagan. Buni maktabgacha ta'lim tashkiloti ichki tartib qoidalariga asosan rasmiylashtirib shakllantirish mumkin. Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilayotgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ota-onalar tomonidan talab bo'lsa yoki aynan shu yondashuvni yoqlab chiqmoqchi bo'lsak, buning uchun hech qanday qat'iy ta'qiqlar yo'q. Tajribada 3 yoshli bolalar bilan 7 yoshli bolalardan iborat aralash guruhini tashkil qilganimizda, akademik bilimdan ko'ra anglangan munosabatlarni ko'proq foizini ko'rganmiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrda ularga mustaqillik, ijodkorlik va muammolarni o'zlari hal qilish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Bu yoshda bolalarning fikrlash qobiliyatlari va dunyoga munosabatlari shakllana boshlaydi. Shuning uchun, ularga "tayyor" bo'lgan narsalarni berish, o'zgarishga, ilhomga va yangi narsalarni o'rganishga to'sqinlik qilish mumkin. Bola mustaqil izlanishi uchun qiyinchiliklarni boshidan o'tkazishi kerak. Kichkinalar kattalarani kuzatib ongli ravishda tushunib olishlari aynan mana shu aralash yoshli bolalar guruhlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Aralash yoshli bolalardan tashkil topgan guruhlarida yana bir ko'proq e'tibor qilinadigan tomoni shundaki guruhda katta yoshli bolalarning soni kichik yoshli bolalardan ko'proq bo'lishi kerak chunki, aks ta'sir etishi ham mumkin. Tarbiyachilar kichik yoshli bolalarga o'rgatishi mumkin bo'lgan narsalarni guruhidagi katta yoshli bolalar osonlik bilan go'yoki ustoz-shogirddek bo'lib o'rgatib qo'yadi. Bir xil yoshdagi bolalar guruhidan chiqqan bolalar bilan aralash yoshli bolalardan tashkil topgan guruhdan chiqqan bolalar o'rtasida anchagina farqlar seziladi. Aralash yoshli bolalar guruhidan chiqqan bolalar anchagina tajribali, tetik, aqilli, o'zini tutib olgan bo'ladi, hattoki, o'z tengqurlariga: "Shuni ham bilmaysanmi? Bu mana bunday bo'ladi", - deb o'rgatishlari kuzatilgan. "Faoliyatim davomida guruhimdagi kichik yoshli bolalarga qaramaslikka, ularga e'tibor bermaslikka harakat qilar edim va ularni kuzatar edim. Katta yoshli bolalar kichik yoshli bolalarga o'zlari o'rgatib, ko'mak berib borishadi va shu bilan kattalar kichiklarni izzat qilishi va asrab avaylash kabi insoniy tuyg'ular shakllanib boradi", - deydi tarbiyachi Noila Adilova.

Aralash guruhlarini tashkil qilishning afzalliklari quyidagilardan iborat.

1) Insoniy tuyg'ularni shakllantirish. Kelajakda har bir inson bir sohaning yetuk mutahassisi bo'lishi mumkin. Lekin unda insoniy tuyg'ular shakllanmagan

bo'lsa, bu yetuklik ahamiytali hisoblanmaydi. Insoniy munosabatlar masalan, kattalar kichiklarni e'zozlashi, kichiklar kattalarni hurmat qilishi, ota-onasini e'zozlashi, o'zaro yuordam, do'stlik-o'rtoqlik kabi insoniy tuyg'ular aynan mana shu aralash guruhlarda bolalar hayotiy tajribalarga asoslangan holda tez shakllanadi chunki, bu munosabatlarning bevosita guvohi bo'ladi. Jaxldor, urushqoq bolalardan kichiklarni himoya qiladi va himoyalangan bola kelajakda o'zi ham kimnidir himoya qilishga tayyor bo'ladi yoki kimgadir ozor berishdan tiyiladi. Muhimi, milliy qadriyatlarimizga xos bo'lgan insoniy tuyg'ular shakllanib boradi.

2) Hayotiy tajribaga asoslangan anglangan munosabatlar. Agar bolada akademik bilim bo'lmasa, o'zi tajriba qilib, kattalarni kuzatib, ular qilgan ishni qaytarib o'zicha mustaqil dunyoni bilishga harakat qiladi. Ya'ni, har xil usulda bajarib ko'radi va ichidan eng yaxshi natija ko'rsatganini o'zi his qilib ko'radi. Kelajakda bu bola har xil usullarni sinab ko'rishdan va ichidan eng yaxshi, ma'qul variantini tanlab olishdan qo'rqmaydi. Bola tajriba qilib ko'rishdan qo'rqmaydi va qilgan ishi qaysi biri yaxshi natija berganini anglab yetadi hamda o'zi qilgan ishi uchun javob beradigan inson sifatida shakllanadi. Kelajak avlodlarini tarbiyalayotganda ularni boqimanda qilib tayyor narsalarga o'rgatib qo'ymaslik uchun mana shunday hayotiy tajribaga asoslangan anglangan faoliyat muhim rol o'naydi.. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ish jarayonida tarbiyachi eng avvalo yaxshi kuzatuvchi bo'lishi kerak, ya'ni u mashg'ulotlarni olib boradi va shu bilan birga kuzatuvchi, yo'naltiruvchi, o'rgatuvchi bo'lishi kerak. O'rgatadi, ko'rsatadi, tushuntiradi va bolalarni o'ziga qo'yib beradi va natijada bolalar bir biriga tezda o'rgatishni boshlaydi. Kattalar kichiklarga osonlik bilan o'rgatadi va keyingi yilda ana shu kichik bolalarga siz energiyani 50 foizini sarflab davlat talablarini bajara olasiz. Bir hafta davomida o'rgatishingiz mumkin bo'lgan mavzuni bir yoki ikki kun davomida o'rgata olasiz, sababi, bolada avvalgi aralash yoshli bolalar guruhida ko'zi bilan ko'rgan, amaliyotda bajarganligi va katta yoshli bolalardan olgan tajribalari borligi asos bo'la oladi. Aralash yoshli bolalar guruhlarini tashkil qilinishidan ko'zlanadiga asosiy maqsad - haotiy tajribalarga ega bo'lgan, o'zining shaxsiy nuqtai nazariga ega va shu bilan birga insoniy tuyg'ulari shakllangan kelajak avlodni tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bir donadan bo'lsa ham mana shunday aralash yoshdagi bolalar guruhlarini tashkil qilish kelajakda yaxshi natijalar beradi. Sababi, bitta hudud bo'ylab keng ko'lamli qilib yoyishni imkoni yo'q. Aralash yoshli bolalar guruhlarida ishlash nafaqat bolalar uchun, balki, tariyachi uchun ham bir qator engilliklar yaratadi. Sababi bir xil yoshdagi bolalarga yuqori energiyani sarflab mashg'ulot o'tishdan farqli o'laroq, aralash guruhdagi bolalarga o'rgatadi, yo'naltiradi, kuzatadi.

Quyida biz aralash yoshli guruhlar faoliyatining mazmunida yotgan asosiy maqsadlarni bayon etamiz:

1. **Muloqot.** Aralash yoshli guruhlarda kichik, katta va tayyorlov yoshidagi bolalar biri biri bilan muloqotda bo'ladi. Bu esa kichiklarga katta yoshli boladan muloqot tajribasini olish imkonini beradi.

2. **Ijtimoiy xulq.** Kichik yoshli bolalar katta yoshli bolalardan hamkorlik qilish na'munalarini o'rganadilar. Ular oldida o'yinlarda yuklatilgan rollarni yaxshi bajarishga harakat qilishadi. Muloqotning turli ko'rinishlarida (katta-kichik, tengdosh,

to'ng'ich-kenja) uning imkoniyatlarini baholay oladilar. Bu esa ko'proq shaxsiy rivojlanish imkoniyatini beradi.

3. **Bag'rikenglik.** Katta yoshli bolalar kichiklarga nisbatan bag'rikeng bo'lishga, ularni himoya qilishga, ularning hohish va istv haklarini bajarishga moyil bo'lishadi.

4. **O'zaro yordam.** Katta va kichik yoshdagi bolalarning muntazam bir biri bilan muloqot qilishi ularda do'stona munosabatlarni, g'amxo'rlikni, mustaqillikni shakllantiradi. Masalan, kattalar kichiklarga oyoq kiyimini kiyishga, qo'lini yuvishga, ovqatlanishga yordam berishadi. Shu bilan birga ularga ibrat, na'muna ko'rsatishga harakat qilishadi. Shunga muvofiq ravishda o'zlarining xatti-harakatlarini nazorat qilishga, topshiriqlarni kichiklardan yaxshi bajarishga harakat qilishadi.

5. **Barkamol rivojlanish.** Aralash yoshli guruhda kichik yoshli bolalar katta bolalardan na'muna olishga, muhim ma'lumotlarni ulardan osonlik bilan o'rganishga harakat qilishadi. Turli yoshdagi bolalar mashg'ulotlar jarayonida bir birini fikrini bilishga, taassurotlarini o'rtoqlashishga, shunchaki bilimlarini namoyish qilishga harakat qilishadi. Bu esa bolaning barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.

6. **Nutqiy rivojlanish.** Aralash yoshli guruhlarda kichik yoshli bolalarning nutqiy malakalari tezroq shakllanadi. Chunki ular doim kattalarning nutqini eshitishadi, ular bilan dialog qilishga intilishadi, ularning so'z va harakatlarini qaytarishga harakat qilishadi.

7. **Adaptatsiya.** Aralash yoshli guruhlarda bolalar bog'chasiga adaptatsiya anchayin oson kechadi. Chunki bolalar bog'chasiga tushib qolgan bola ko'radiki, hamma xotirjam, hamma o'z ishi bilan band, hamma do'st, ahil, inoq. Shuning uchun ham adaptatsiya davri oson kechadi.

8. **Shaxsiy pozitsiya.** Aralash yoshli guruhlarda bola o'ziga qulay shaxsiy psixologik pozitsiyani egallashi mumkin. U mustaqillikka intilayotgan katta yoshli bola pozitsiyasini ham egallashi mumkin, yordamga muhtoj kichik bola bo'lishi ham mumkin. Buning uchun uni xech kim muhokama qilmaydi.

9. **Psixologik o'ziga xosliklar.** Aralash yoshli guruhlarda bolalarning psixologik o'ziga xosliklari rivojlanadi. Masalan, uyatchan, lekin yoshi katta bola kichiklalar bilan muloqot qilar ekan, o'zida liderlik sifatlarini shakllantirish mumkin. O'zining va o'zgalarning ko'z o'ngida shaxsiy obro'sini ko'tarishi mumkin. Yoki o'ta badjahl bola o'zini qo'lga olishga o'rganadi. Kichiklarga zarar yetkazishdan qo'rqib o'zini qo'lga olishga odatlanadi.

10. **Oila.** Hozirgi paytda oilada faqat bitta yoki ikkita farzand ko'rish an'anaga aylanib qolgan. Ana shunday kam sonli oilada ulg'ayayotgan bola uchun aralash yoshli guruhlar katta oila o'rnini bosadi.

Aralash yoshli guruh bolaga muhim ijtimoiy sinovlarni boshdan o'tkazishga, o'zini "kichik" va "katta", "o'quvchi" va "ustoz", "yordamchi" va "ijrochi", "rahbar" ro'lida sinab ko'rishga, ijtimoiy xulq-atvorda tajriba orttirishga imkon beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar boshqa odamlarning ishbilarmonlik va axloqiy fazilatlarini, shuningdek, o'z imkoniyatlarini yetarli darajada baholashni o'rganadilar. Katta yoshdagi bolalarning xulq-atvoriga qarab, kichiklar ularni murabbiy sifatida qabul qiladilar va nimaga intilishlari kerakligini ko'rishadi.

Aralash yosh guruhlarida tarbiyachining kasbiy faoliyati juda murakkab bo'lib, mutaxassisning yuqori mahoratini, bolalarni o'rganishga tizimli yondashuvni, dastur talablarini har bir bolaning individual xususiyatlari bilan bog'lash qobiliyatini, shuningdek umuman barcha bolalarni tushunish va ko'rish qobiliyatini takomillashtirishni talab etadi. Darhaqiqat, bolaning atrofdagi dunyoni bilishi, hayotini tashkil etishi, boshqa bolalar va kattalar bilan shaxslararo munosabatlarni shakllantirish ko'p jihatdan aralash yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishning uslubiy jihatdan to'g'riligiga bog'liq. Respublikamizdagi bolalar bog'chalarida bolalarni yoshga qarab guruhlariga bo'lish odatiy va uzoq muddatdan buyon olib borilayotgan amaliyotdir. Bolalarning ilk yoshli guruhdan tayyorgarlik guruhiga boradigan yo'li O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimidagi an'anaviy yo'ldir. Ammo har bir qoida uchun istisnalar mavjud. Masalan, qishloqlardagi kam sonli bolalar bog'chalarida, qisqa muddatli guruhlarda, maxsus, tuzatish, inklyuziv guruhlarda, shuningdek, uy va oilaviy bolalar bog'chalarida me'yor faqat aralash yoshli guruhlardir. Hozirgi vaqtda aralash yoshli guruhni tashkil etish va pedagogik faoliyat olib borish amaliyoti oilaviy bolalar bog'chalarida eng faol rivojlanmoqda. 10 yil davomida ushbu ta'lim shaklini rivojlanishining negizida aralash yoshli bolalar bilan ishlashda katta tajriba to'plangan. Bolalar bog'chasida aralash yoshli guruhlarini shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan ishlab chiqilgan nizomga asoslanadi.

Adabiyotlar ro'yhati

1. YO'LDOSHEV, Q. O. Z. O. Q. B. O. Y., et al. "Adabiyot." *Toshkent-2019*.
2. Qodirov, Valijon. "Reflections on the formation of reflexive abilities in preschool education." *Science and innovation* 2.B11 (2023): 150-153.
3. Kadirov, Valijon, and Dildora Abdullajonova. "FICTION IS A FACTOR IN THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION AND SPIRITUALITY IN CHILDREN." *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры* 2.3 (2022): 124-127.
4. Хасанов, Шаробидин Азамович. "ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБУЧЕНИЯ." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*. 2018.
5. Ibraimov, X., Z. Azimova, and Z. Otaboeva. "Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community." *Science and innovation* 2.B12 (2023): 108-113.
6. Азимова, Зиёда Эргашевна. "Олий ўқув муассасаси маънавий-маърифий ишларининг педагогик назария ва амалиётда тутган ўрни." *Современное образование (Узбекистан)* 2 (2018): 26-35.
7. Artikova, M. "DEMAND FOR A COMPETENCY-BASED APPROACH TO THE ACTIVITIES OF TEACHERS IN MODERN CONDITIONS." (2021).
8. Artikova, Muhayo Botiraliyevna. "Experience In Developing Entrepreneurship Skills In Foreign Countries." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.7 (2019): 250-255.

9. Artikova, Muhayyo Botiraliyeva. "PECULIARITIES OF METHODOLOGICAL WORK IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL." *Science and Education* 2.1 (2021): 297-300.
10. Artikova, M. B. "THE FACTORS OF BRINGING CHILDREN UP IN THE MOOD OF MATERIAL AND SPIRITUAL INTEGRATED LIFE IN THE FAMILY (AS AN EXAMPLE OF PRIMARY SCHOOL AGE)." *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука* 6 (2018): 269-272.
11. Tojiboeva, Muqaddas, Nargiza Sattarova, and Nazokat Qanoatova. "Tradition In Abdulla Avloni's Poetry." *JournalNX* 7.11 (2021): 166-171.
12. Таджибаева, Мукаддас Абдурахимовна. "Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии." *Проблемы востоковедения* 2 (56) (2012): 53-58.
13. Tojiboyeva, Ffd MUQADDAS, and Vositov Shavkatbek. "FOLLOW-UP, STABILITY, AND ARTISTIC DISCOVERY IN JADID LITERATURE." *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology* 17.6 (2020): 14576-14581.
14. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "TA'LIMIY O 'YINLAR MTT VA OILA HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH VOSITASI SIFATIDA." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 87-93.
15. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "EKOLOGIK ONG VA AXLOQNING IJTIMOYIY-EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 94-100.
16. Хасанов, Шаробидин, and Мукаддас Тожибоева. "ЖАДИДЧИЛИК ДАВРИ АДАБИЁТИДА МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ҲОЛАТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 101-106.
17. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "Pedagogik kadrlarni tayyorlashda sun'iy intellekt asosida interaktiv o 'quv muhitini tashkil etish." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 107-112.
18. Azimova, Ziyoda, Muhayyo Artikova, and Valijon Qodirov. "MTTDA BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH VA BOLALAR NUTQINI O 'STIRISH YUZASIDAN MULOHAZALAR." *Educational Yield Insights & Breakthroughs* 2.1 (2025): 113-117.